



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

SUN’IY INTELLEKT: YUTUQLAR ORTIDAGI XATARLAR

Qo‘yliyev Asadbek G‘anisher o‘g‘li

asadbekquyliyev75@gmail.com

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kunda dunyoni qamrab olgan va odamlar orasida ommalashib borayotgan sun’iy intellekt (SI) ning kelajakdagi kutib turgan istiqbolli rejalari hamda uning natijasida vujudga keladigan xavf va xatarlar tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt inson hayotining turli qismlarida keng tarqalganligi va qo‘llanilayotganligi masalan tibbiyot, ta’lim, iqtisodiyot, sanoat, biznes, transport tizimlarini samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqa tomondan, ishsizlikning ortishi, kiberxavfsizlikka tahdidlar kabi muammolar muhokama qilinadi va vujudga keladigan xavflar huquqiy va axloqiy jihatdan o‘rganilib, kelajakda texnologiyalarning xavfsiz rivojlanishi uchun takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt (SI), texnologik yutuqlar, zamonaviy texnologiyalar, kiberxavfsizlik, ish o‘rinlari va ishsizlik.

Аннотация: В этой статье будут проанализированы будущие многообещающие планы искусственного интеллекта (ИИ), который в настоящее время охватывает весь мир и становится все более популярным среди людей, а также связанные с ним риски и риски. Тот факт, что искусственный интеллект широко используется и используется в различных сферах жизни человека, например в медицине, образовании, экономике, промышленности, бизнесе, становится важным для эффективного управления транспортными системами. С другой стороны, обсуждаются такие проблемы, как рост безработицы, угрозы кибербезопасности, а возникающие риски



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

изучаются с юридической и этической точек зрения, предлагая предложения по безопасному развитию технологий в будущем.

Ключевые слова: искусственный интеллект (ИИ), технологические достижения, современные технологии, кибербезопасность, рабочие места и безработица.

Abstract: This article will analyze the future promising plans of artificial intelligence (AI), which currently covers the entire world and is becoming increasingly popular among people, as well as the risks and risks associated with it. The fact that artificial intelligence is widely used and used in various spheres of human life, such as medicine, education, economics, industry, and business, is becoming important for the effective management of transport systems. On the other hand, issues such as rising unemployment and cybersecurity threats are discussed, and emerging risks are examined from a legal and ethical perspective, offering suggestions for the safe development of technology in the future.

Keywords: Artificial intelligence (AI), technological advances, modern technologies, cybersecurity, jobs and unemployment.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda yashar ekanmiz, deyarli har kuni har sohada turli texnologiyalarga duch kelamiz va ulardan foydalanamiz masalan mobil qurilmalar yoki shu kabi boshqa gadjetlarni aytishimiz mumkin. Ushbu texnologiyalar rivojlanayotgan dunyoning asosiy bo'g'iniga aylandi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt (SI) XXI asr ya'ni texnologik inqilobning asosiy yunalishidan biriga aylana oldi. SI ning rivojlanishi insoniyat insoniyat turmush tarzining turli jabhalariga chuqur ta'sirini o'tkazib, ta'limdan tortib tibbiyot, sanoat va biznesgacha bo'lgan



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

jarayonlarni keskin o'zgartirmoqda. SI yordamida tizimlarni avtomatlashtirish orqali inson mehnatiga ehtiyojni kamaytirib, samaradorligini oshirmoqda. Bu esa nafaqat ishning sifatini oshiradi balki kelajak uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Boshqa tomondan, SI ning rivojlanish natijasi bilan birga kelib chiqadigan turli global savollar ham vujudga kelmoqda. Ish o'rinlarining qisqarishi, kiberxavfsizlikka tahdidlar va axloqiy muammolar shular jumlasidandur. Ushbu maqolada SI ning kelajakdagi istiqbollari, uning jamiyatga ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil qilinib, xavfsiz va mas'uliyatli rivojlanish uchun zarur bo'lgan choralar muhokama etiladi.

Adabiyotlar tahlili

Sun'iy intellekt mavzusi nafaqat hozirgi global mavzulardan balki butun insoniyat kelajagi uchun muhim mavzulardan biridir. SI sohasida gap ketar ekan bu sohadagi ilmiy izlanishlar juda ko'p jihatlarni o'z ichiga oladi, shu jumladan, uning yutuqlari va xavflarini. Bu borada **Stuart Russell** va **Peter Norvig** tomonidan yozilgan "**Artificial Intelligence: A Modern Approach**" asari juda muhim hisoblanadi.[1] Ushbu asarda sun'iy intellektning rivojlanishi, texnologiyalari va insoniyat uchun keltirishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy oqibatlar aytib o'tilgan. Bundan tashqari SI ning ta'lim va texnologiyalarning rivojlanishidagi o'rni haqida O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham ko'plab tadqiqotlar o'tkazgan **Onarkulov M. va Isaqova S. (2024)** tomonidan yozilgan "**NEYROCHILAR, MAXSUS MATRITSALI KUCHAYTIRGICHLAR VA NEYROEMULYATORLAR**" maqolasini aytishimiz mumkin, bu maqola sun'iy intellektning innovatsion yutuqlari va uning amaliy qo'llanilishi haqida keng ma'lumot berilgan.[2] SI haqida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) 2023-yil 16-mayda sun'iy intellektning sog'liqni saqlash sohasida xavfsiz va etik tarzda qo'llanilishi zarurligini ta'kidlab e'lon qilgan bayonotida, texnologiyaning kelajakdagi foydalari va xavflarini aytib o'tadi.[3] SI



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT"
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

texnologiyalarining iqtisodiyotga, xususan, mehnat bozoriga ta'siri so'nggi yillarda katta ahamiyat kasb etmoqda. 2023-yilgi **"Sun'iy intellekt xavfi: odamlarning ishsiz qolish ehtimoli qanchalik yuqori?"** nomli Kun.uz manbasida, sun'iy intellektning ish o'rinlari va mehnat bozoriga ta'siri muhokama qilingan. Ushbu manbada, SI texnologiyalari va avtomatlashtirishning ishchilarning kasblariga qanday ta'sir qilishi va bu jarayonlar natijasida ishsizlik darajasining qanday o'zgarishi ehtimoli keltirilgan.[4] Yuqoridagi adabiyotlar hozirgi kundagi muhim mavzuga aylangan SI ning insoniyatga ta'sirini ya'ni salbiy va ijobiy natijalarini ta'kidlab o'tgan.

Metadalogiya

Ushbu tadqiqotning maqsadi SI texnologiyalarining yutuqlari va rivojlanishiga qaramasdan, ular bilan bog'liq xavflar va muammolarni tahlil qilishdir. Mazkur tadqiqot davomida tahliliy yondashuv metodidan SI haqidagi boshqa adabiyot va maqolalar bilan birgalikda tahlil qilindi va muhim fikrlar yig'ildi. Ushbu maqolada statistik tahlil metodi orqali kelajakda kutib turgan SI ta'sirida vujudga kelgan muammolarning statistikalari orqali ma'lumotlar berildi.

Natijalar

Sun'iy intellekt (SI) so'nggi yillarda jamiyatda katta o'zgarishlarni keltirib chiqardi. U bir tomondan turli sohalarda yutuqlarni taqdim etsa, boshqa tomondan yangi xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda.

SI ning yutuqlari

- Ta'limda: Russell va Norvig (2021)¹ kitobi, sun'iy intellektning ta'lim tizimiga kiritilishi bo'yicha chuqur tahlil beradi va bu texnologiyaning ta'lim jarayonini qanday o'zgartirishini ko'rsatadi. Ularning fikricha, sun'iy intellekt yordamida ta'lim tizimini samarali ravishda optimallashtirish

¹ Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. Pearson



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

mumkin, ammo bu texnologiyalarni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash zarur. Bu kitob ta’lim sohasidagi ilg‘or yondoshuvlar va innovatsiyalarni taqdim etadi, shuningdek, sun‘iy intellektning ta’lim tizimiga bo‘lgan ta’sirini ijobiy va salbiy tomonlarini ta’kidlab o‘tadi. Masalan, Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning o'qish jarayonlari va o'zlashtirish darajalarini nazorat qilish, ularning natijalarini tahlil qilish va ularning xatolarini aniqlashga yordam beradi.

- Iqtisodiyotda: Ma’lumki, texnologiyalar va mashinalar charchamaydi. Texnologiyalar cheksiz, tanaffuslarsiz ishlashi mumkin va ular odamlardan farqli ravishda bir xil narsani takrorlashdan ham charchamaydilar². Buning natijasida samaradorlik oshadi. Undan tashqari, inson xatosini kamaytiradi. Insonlar hafta davomida kecha va kunduz ishlashga qiynaladi buni davomiy bajara olmaydi lekin texnologiyalar davomiy tarzda ishlashi mumkin.
- Transportda: Transport tizimlari inson omilini kamaytirib, xavfsizlikni oshiradi, yo'l-transport hodisalarini kamaytiradi. SI yordamida yo'l harakati oqimi optimallashtiriladi, tirbandliklar kamayadi va transport samaradorligi oshadi³. Shuningdek, avtomobil tizimlari haydovchiga xavfsizlikni ta'minlashda yordam berib, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi. Bu texnologiyalar transportni xavfsizroq va samaraliroq qiladi.
- Tibbiyotda: Sun'iy intellekt tibbiy tasvirlarni (masalan, rentgen, MRI va CT skanerlar) tahlil qilishda insondan aniqroq va tezroq natijalar taqdim etishi mumkin. Bu bemorlarning kasalliklarini erta aniqlash va davolash imkoniyatlarini oshiradi. Undan tashqari, SI tizimlari, masalan, robotlar


² Karimberdiyevich, O. M., & Abdulaziz o‘g‘li, Y. M. (2024). SUN'IY INTELLEKTNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. IZLANUVCHI, 1(1), 75-85

³ Akromjon o'g'li, Baxtiyorov Faxriyor. "YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI." ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR 7.72 (2024): 113-116



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

yordamida, jarrohlik amaliyotlarini yanada aniqroq va kamroq xatoliklar bilan o'tkazishga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, bemorning tiklanish jarayonini tezlashtiradi. (1-rasm)



**1-rasm. Sun'iy
intellektni qo'llash
orqali onkologik
kasalliklarini erta
aniqlash⁴**

SI ning salbiy tomonlari

Sun'iy intellekt etik salbiy natijalarni olib kelishi mumkin. SI tizimlari diskriminatsiya va nohaqlik keltirib chiqarishi mumkin, chunki ular ba'zan o'z qarorlarida odamlarning irq, jinsi yoki boshqa xususiyatlariga asoslanishi mumkin. **Stuart Russell** va **Peter Norvig**ning asarida⁵ SI tizimlarining nohaqlik va adolatsizlikka olib keladigan ehtimollari muhokama qilinadi. Misol uchun, ayrim SI tizimlari ishonchli yoki yaxshi ishlashga qodir bo'lmagan ma'lumotlar bilan o'qitilgan bo'lishi mumkin, bu esa ular qaror qabul qilishda noto'g'ri yoki adolatsiz bo'lishiga olib keladi. Sun'iy intellektning keng tarqalishi natijasida ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Yana ushbu kitobda SI texnologiyalarining bir nechta jamiyat guruhlariga ta'siri haqida so'z boradi. Masalan, sun'iy intellektni rivojlantirishda hamda undan foydalanishda ba'zi mintaqalarda, yirik kompaniyalar

⁴ <https://uza.uz/oz/posts/suniy-intellektni-qollash-orqali-onkologik-kasalliklarini-erta-aniqlashga-erishildi> 354115

⁵ Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. Pearson



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

va rivojlangan mamlakatlar ustunlikka ega bo'lishi mumkin, bu esa global miqyosda iqtisodiy farqni oshirishi mumkin. Xususan, malakali ishchilar uchun imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa, kam malakali yoki texnologiyalarni qo'llashga moslashmagan ishchilar ish o'rinlarini yo'qotishi mumkin. Buning natijasida iqtisodiyotga juda katta salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Ishsizlik darajasi ortishi kutilgan holdir. Avtomatlashtirish va sun'iy intellektning ishchi kuchini almashtirish salbiy oqibatlarini keng muhokama qilingan. Sun'iy intellekt tizimlari va robotlar ko'plab mehnat jarayonlarini avtomatlashtirib, odamlarning ish o'rinlarini yo'q qilishi mumkin. Bu jarayon, ayniqsa, oddiy va takrorlanuvchi ishlar bilan shug'ullanadigan ishchilar uchun xavf tug'diradi. Bunga yaqqol misol, transport, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi ish o'rinlari sun'iy intellekt tomonidan egallanishi mumkin.

Kun.uz manbasida keltirishicha, Sun'iy intellekt inson qilishi mumkin bo'lgan ko'p vazifalarni bajara olyapti va bu odamlarning ish o'rinlarini yo'qotishlariga ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan, taksilar, yuk mashinalari haydovchisiz ham boshqarilishi, kassalarda hisobchilar bo'lmasligi, jarrohlik operatsiyalarini ham odam emas, robotlar qila olishi mumkin. Natijada esa, albatta, kimdir ishsiz qolishi ehtimoli bor. (2-rasm)



2-rasm. Sun'iy intellekt xavfi - odamlarning ishsiz qolish ehtimoli qanchalik yuqori?⁶

⁶ <https://kun.uz/news/2023/05/10/suniy-intellekt-xavfi-odamlarning-ishsiz-qolish-ehitimoli-qanchalik-yuqori>



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

Muhokama

Sun'iy intellekt (SI) bugungi kunda turli sohalarda rivojlanib, hayotimizga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu texnologiyalar ta'lim, iqtisodiyot, tibbiyot, transport va boshqa sohalarda samaradorlikni oshiradi. Misol uchun, ta'limda SI yordamida o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini shaxsiylashtirish mumkin, bu esa ularning natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Iqtisodiyotda esa texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va inson xatosini kamaytiradi.

Biroq, bu texnologiyalar bilan birga, ba'zi xavf-xatarlar ham yuzaga kelmoqda. Ishsizlik masalasi ayniqsa, avtomatlashtirish va SI tizimlarining ishchi kuchini almashtirishi natijasida ortishi mumkin. Kiberxavfsizlik ham muhim masala, chunki SI tizimlariga tahdidlar mavjud bo'lishi mumkin. Shuningdek, etik masalalar, masalan, diskriminatsiya va nohaqlik kabi holatlar ham yuzaga kelishi mumkin.

Shunday qilib, sun'iy intellektning rivojlanishi ko'plab imkoniyatlarni yaratish bilan birga, mas'uliyatli yondashuvni talab etadi. Texnologiyaning xavfsiz va axloqiy rivojlanishini ta'minlash uchun aniq regulyatsiyalar va ko'rsatmalar zarur.

- SI tizimlari va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun ilg'or kiberxavfsizlik protokollarini joriy etish zarur. Xususan, ma'lumotlarni himoya qilish va tizimlarni potentsial hujumlardan himoya qilish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqilishi kerak.
- SI va avtomatlashtirishdan kelib chiqadigan ish o'rinlari o'zgarishini hisobga olib, yangi kasblar yaratish va mavjud ishchilarni yangi texnologiyalarni o'rganishga tayyorlash muhim. Malakali mutaxassislar tayyorlash dasturlari va o'qitish kurslari kengaytirilishi kerak.
- Sun'iy intellekt tizimlarining qaror qabul qilish jarayonida shaffoflikni ta'minlash va diskriminatsiyaning oldini olish uchun qat'iy etik standartlar



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

ishlab chiqilishi zarur. Tizimlarning qanday ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilishi aniq bo'lishi kerak.

Xulosa

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari so'nggi yillarda hayotimizda katta o'zgarishlar yaratdi. U ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot va boshqa ko'plab sohalarda samaradorlikni oshirib, yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, SI yordamida tibbiyotda kasalliklarni erta aniqlash, transportda xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiyotda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Ammo bu texnologiyalarning rivojlanishi bilan birga ba'zi xavf-xatarlar ham paydo bo'lmoqda.

Ish o'rinlarining qisqarishi, kiberxavfsizlikka tahdidlar va etik muammolar kabi masalalar jiddiy e'tiborga olinishi kerak. Shuning uchun, SI texnologiyalarining xavfsiz va mas'uliyatli rivojlanishi uchun qat'iy regulatsiyalar, malakali mutaxassislarni tayyorlash, kiberxavfsizlikni mustahkamlash va etik me'yorlarni joriy etish zarur. Faqat shu tarzda sun'iy intellektdan maksimal foyda olish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. Pearson
2. Onarkulov, M., & Isaqova, S. (2024). NEYROCHILAR, MAXSUS MATRITSALI KUCHAYTIRGICHLAR VA NEYROEMULYATORLAR. *Science and Innovation in the Education System*, 3(6), 52-58
3. World Health Organization (2023). *WHO calls for safe and ethical AI for health* <https://www.who.int/news/item/16-05-2023-who-calls-for-safe-and-ethical-ai-for-health>



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

4. Kun uz <https://kun.uz/news/2023/05/10/suniy-intellekt-xavfi-odamlarning-ishsiz-qolish-ehtimoli-qanchalik-yuqori>

5. Karimberdiyevich, Onarkulov Maksadjon, and Yusupov Mirsaid Abdulaziz o‘g‘li. "SUN'IY INTELLEKTNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI." IZLANUVCHI 1.1 (2024): 75-85